

Muhamad Yusuf

(1954-2001)

Bir arsloni o'tdi o'zbekning!

O'zbekiston Halq shoiri Muhammad Yusuf oramizdan ketganiga ham uch yil bo'libdi. Ammo she'riyatga tashna dillar uning dardchil satrlarini oldingidan ham ko'proq ko'msamoqdalar. Kitoblarini kitob do'konlaridan qidirmoqdalar. Xofizlar uning kuylanmay qolgan satrlarini sozga tushirmoqdalar.

"Erta so'ngan yulduzlar" kitobiga shoir Muhammad Yusufning gurnalist bilar suxbati, shoirning hali e'lon qilinmagan ayrim she'rlari, u haqdagi maqolalar vafotidar keyingi, do'stlarining xotiralari, marsiyalari hamda umr yo'ldoshi, shoira Nazira as-Salomning gurnalistlar bilan muloqotlari matnini to'plab kiritdik. O'ylaymizki, ushbu materiallar shoir igodi muxlislarini ozgina bo'lsada qanoatlantiradi.

VATANNI SEVING

Muhammad Yusuf

Kimlardir kaftida gul ushlab yurar,
Kimlardir qo'lida palaxmon toshi.
Chayqalib turganda dunyo guldirab,
Yurtning poyidadir yigitning boshi
Sevsangiz avval shu Vatanni seving,
So'ng shaxlo ko'zu gulbadanni seving.
Unutmang bu ko'xna charxi falakda
Vatandan boshqasi hammasi mayda.
Ko'ngilda orzuday osmon musaffo,
Tuproq tpinch bo'lmasa muhabbat qayda -
Sevsangiz avval shu Vatanni seving.
So'ng shaxlo ko'zu gulbadanni seving.
Chorlasa siz qo'rg'on bo'ling, tosh bo'ling.

Suyang bir-biringiz, yelkadosh bo'ling.
Qani kim botinib bir so'z aytolgay.
Bitta gon, bitta tan, bitta bosh bo'ling -
Sevsangiz avval shu Vatanni seving,
So'ng shaxlo ko'zu gulbadanni seving.
Shu yurt tinch, yo'q dilda sanchiqlaringiz,
Qiqirlab yurishar qalliqlaringiz,
Yor-yorlar yarashar, to'ylar yarashar,
Yarashar to'qlikka sho'xliklaringiz -
Sevsangiz avval shu Vatanni seving,
So'ng shaxlo ko'zu gulbadanni sevisht.

MAHALLA

Yuzaki qaralsa, markaz hashamlari,
Osmono'par uylar hammasi go'zal.
Ammo bosh suqilsa, bularning bari
Bir oddiy mahalla oldida o'sal.
O'zbekim qomusi - mahallam mening,
Sening o'z qonuning, odatlaring bor.
Saxifasi oltin magallam mening,
Sen noqis oyogi yetmagan diyor.
Baraka deysizmi, oqibatmi yo,
Iliqlikning bari bunda muuayyo,
Shu goydan boshlanar insof vodiysi,
Mahalla – diyonat, mahalla – hayo.

Eski tomingga ham qilaman havas,
Qiyshaygan devorlar menga exromlar.
Chunki osmono'par qasrlardanmas,
Mahalladan chiqqan G'afur qulomlar.
Shoir emas, garchi bo'lsaydim agar,
Kim kelsa, derdim men, qaysi sarhaddan.
Mexmon markazni qo'y, mahallaga bor,
Bizda mahalladan boshlanar Vatan,

Haqiqiy she'r - odamlar orasida

O'zbekiston Halq shoiri Muhammad Yusuf bilan suxbat

Muhammad aka, yaqinda Prezidentimizning qo'llaridan Halq shoiri unvonini oldingiz, avvalambor, yuksak unvon bilan tabriklaymiz. Agar istasangiz, suxbatimizni o'sha voqeadan keyingi ko'ngil kechinmalariningiz bilan boshlasak...

Bilasizmi, qaysi sohada bo'lmasin, mexnatingizni ozgina bo'lsa-da qadrlab barakalla, deb yelkangizga urib qo'yishsa, bu - katta bir dalda bo'lishi turgan gap. Mening ham kimgadir keragim bor ekan, deb kungildan o'tkazasiz, ruxlanasiz-da! Kamtarin ijodimni shu qadar yuksak unvon bilan taqdirlaganlari uchun juda minnatdorman. Mening yutug'imdan faxrlanib, ko'ngli osmon bo'lib yurgan yaqinlarim, birodarlarimni ko'rib yanada shodlanaman.

Yuzga kirgan momom bor.

Uning quvonganini ko'rsangiz edi... Ko'zlariga yosh olib kutladi. Nuroniy yuzlaridan mingdan-ming rozi ekanliklariyu yangi-yangi tilaklarini o'qib olish oson edi.

-O'zbekiston Halq shoiri degan unvon sizga yanada katta mas'uliyatlar yuklasa kerak?

-Albatta. Bu - bildirilgan ishonch demakdir. Bundan keyin yana ham qattiqroc ishlashga undaydigan "og'ayni, endi bo'sh kelmagin" deyish bilan o'lchanadi.

-She'rni har kim har xil talqin etadi. Sizningcha, she'r nima?

-She'r bu - shirin dard, azob. Shoir - shu dard bemori. Yurakdagi o'sha she'r qog'ozga tushmaguncha ba'zida uyqu ham kelmaydi. Uni yozib bitirgandan keyingi rohat boshqacha bo'ladi. Yaxshi kitob o'qisangiz maza qilasiz-ku! Endi bir iliq jumla topib olishni tasavvur qilib ko'ring. Katta-katta asarlarning yaratilishiga ham birgina jumla sabab bo'lishi tabiiy. Bir she'rni qog'ozga tushira olmay oylab qiynalib yurish mumkin lekin bir kuni, "ajoyib kunlarning birida" maqsad ro'yobga chiqadi va o'qib turib quvonib ketasiz. Ba'zilar borki, men yozolmay qolyapman, majburan bo'lsa-da, yozib turmasam, "qo'lim chiqib ketadi", deyishadi. Men bunga aslo qo'shilmayman. O'zing ko'nglim buyurmaguncha yozmayman ham.

-Nasrga qo'l urib ko'rganmisizq?

-To'g'risi, yozsam, qo'limdan keladigan ish. Lekin men uchun eng muximi-she'r uni qizg'anaman. Agar nasrga o'tib, ko'p o'ralashib qolsam, she'r mendan o'ch oladi Chunki u - mening jon do'stim. Xiyonatni kechirmaydi. Nasr bo'lsa, ulfatim...

-Tarjimaga-chi, qanday qaraysiz?

-Juda kam tarjima qilganman. She'r yozib turgan-da tarjima qilish shart emas meningcha. Ba'zilar tarjima shoirni boyitadi, deyishadi. Bilmadim-u lekin u meni ko'proq chalg'itadi. Ruxiyatimga ham to'g'ri kelmaydigan bir xolat.

-Vaqtingizni ko'proq nimalarga sarflaysiz?

-Ko'proq kitob o'qiyman. Boburni, Mashrabni, Bedilni sevib mutolaa qilaman Anna Axmatova, Sergey Yesenin kabi rus shoirlarini, xozirgi she'riyatimizdan Abdulla Oripovni ko'p o'qib turaman.

-Siz uyushmada yosh ijodkorlar bilan shug'ullanasiz. Ayting-chi, adabiyotimiz kenja avlodining qaysi jihatlari sizga ma'qul?

- Bugun ijodkor yoshlarimiz juda ko'p. Ularning ijod dunyosi turfa xil. Biri-biridan go'zal.

Agar taqqoslaydigan bo'lsak, ilgarigi ijodkor yoshlar orasida hamisha bitta eng zo'ri bo'lardi. xozir esa unaqa emas. hammasi zo'r. Birini ajratib aytadigan bo'lsangiz ko'ngilning tubida boshqasi jilmayib tura-di. Bu deganim - barchasining o'z ovozi, o'z yo'li bor. Men bundan juda xursandman.

-Ijodingizdan o'zingiz rozimisiz?

-Yo'q. Lekin men ijodni juda yuksak qilib ko'rsatishni ham xoxlamayman Negaki, bu ham oddiy bir mexnat. Novvoy non yopayotganday, cho'pon qo'yin.

boqayotganday, siz qalbingizdan so'z so'rab odamlarga tarkatasiz. Bu - shoirning kundalik vazifasidek bo'lib qolgan. U she'rga qo'l urmasdan turolmaydi.

-She'r shoir ko'ngil kechinmalarining tafsilotimi yoki ijtimoiylikka daxldor bitiklarmi?

-Bilasizmi, meni nimagadir ko'shiqchi shoir deb tan olishadi. Faqat muhabbatdar yozadi, deyishadi. Lekin men adabiyotga ijtimoiy shoir bo'lib kirib kelganman Esingizda bo'lsa, o'sha paytlarda yozilgan "Samarqandga borsam men agar...", "Do'ppi" Gdlyan haqidagi she'rlarim ana shunday sifatga ega edi.

Endi savolingizga kelsak, she'r ko'ngilni ijtimoiylikka bog'laydigan rishta ham bo'lmog'i kerak. Shunda she'riyat o'z kuch-qudratini namoyon qiladi.

-Yoshlikda orzular juda katta bo'ladi. Ayting-chi, bugungi kunda orzularimga erishdim, deya olasizmi?

-Qisman erishdim, desam yolg'on bo'lmas. Aytganingizdek, bolalik orzular sarhad bilmaydi. Va ularning hammasiga erishib ham bo'lmaydi. Erishilgan kundar boshlab hayotning qizig'i ham qolmaydi. Har kuni yangi-yangi maqsadlar bilan ko'chaga chiqasiz. Sizni yashashga undab turadigap narsa ham mana shu - maqsad va orzular Ularning borligi ham yaxshi.

- She'rni nimalardan izlaysiz?

- Men she'rni faqat ko'chadan izlab, ko'chadan topaman. Kitob o'qib she'r yozmayman. Kitobdan nasr toshpish mumkindir, kitob o'qib olim bo'lish mumkindir ammo haqiqiy she'r - odamlar orasida. Ularni ko'ngil ko'zi bilan qog'ozga tushira bilish kerak.

-Ijodingizda soddalik, jaydarilik yaqqol sezilib turadi. Bu - ruqiyatingizga tabiatingizga boqliqmi?

-Albatta, bog'lik. O'zi hayotda ham shundayman. Jimjimador, balandparvoz so'zlarni yomon ko'raman. So'zni borligicha ifoda etsam deyman. Uning ustidan bo'yoc surkash mutlaqo ortiqcha, qanday so'z bo'lmasin, o'rnida ishlatilsa, soddalik va ravonlik o'z-o'zidan paydo bo'ladi. To'g'ri, so'zlarni bezab, haddan tashqari go'zal qilish mumkin, lekin uni otangiz, onangiz tushunmasa, nima keragi borq Men shunday del o'ylayman.

-Uzingiz yaxshi ko'radigan, beixtiyor xirgoyi qilib yuradigan she'ringiz qaysi?

-Men har yili ko'pincha, bir she'rim ta'siri bilan yuraman. Bu yilgilaridan "Biz baxtli bo'lamiz Xudo xoxlasa..." degan she'rimni yoktiraman.

- Tasavvur qilingki, siz - shoir Muhammad Yusufning muxlisisiz. Chetdar turib unga nima degan bo'lar edingiz?

-She'rlarini o'qib turib, birinchidan, ko'prok o'qi, kamrok ko'shiq yoz, degar bo'lardim. Yaxshilaridan ko'paytir, derdim.

-Bugungi ijodkor yoshlar ijtimoiylikdan qochib, o'z ko'ngliga bekinishyapti degan gaplarga qanday qaraysiz?

-Bu - bekorchi gap, meningcha. Bu gapni to'qib chiqargan bo'lsalar kerak Bugungi yoshlar ijodini to'liq taxlil qilib bera oladigan tanqidchini topish amrimaxo bo'lib qoldi. "Tishi o'tadiganlari" ham butunlay boshqa ish bilan shug'ullanib ketgan.

Yana bir gapni aytish mumkinki, mexr-muhabbatni, ko'ngil kechinmalarin kuylaydigan yoshlarimiz shu yo'lni tutishgan bo'lsa ne ajab! Misol uchun Guljamo Asqarova degan talaba qizning "Bir yor topsak edik, jondan kechgulik" degan misrasin eslaylik. Bu she'rni xech ikkilanmay Vatan hakida deyish mumkin. Uning zamirida shu yurt, shu tuproq nazarda tutilgan.

Demak, biz yoshlar ijodi haqida qo'qqisdan xulosa chiqarishga shoshilmasdan ularni sinchiklab o'qishimiz, ukishimiz kerak ekan.

-Bolalarga ham she'r yozganmisiz?

-Yozganman-u to'g'rirog'i, uddalay olmaganman. "Halima enam allalari" degar bolalarbop turkum she'rlarim bor. Keyin ham harakat qilganman-u yozganimdar ko'nglim to'lmagan.

-Muhammad aka, oxirgi savolim - muxlislaringizga qanday va'dalar va tilaklaringiz bor?

-Oldindan va'da berish qiyin-u lekin shuni aytib qo'yish mumkin: katta bi dostonga qo'l urmoqchiman. Nasib etsa, muxlislaringa hali ko'p she'rlar tuxfa qilaman degan umiddaman.

Barchalariga ko'ngil xotirjamligiyu oila totuvligini tilayman. Omon bo'lishsin Ular bilan yaxshi kunlarda yoruq yuz ila uchrashmoq, ishonchlarini oqlamok, burchimni halol ado etmoq - eng oliy maksadim.

Suxbatdosh Orif To'xtast

Halq bo'l, elim!

Odatda, qalamkash haqidagi eng yaxshi gapni uning asarlari aytadi...

Muhammad Yusuf ijodi haqida ham shunday deyish mumkin. Uning bir qarashda sodda-do'lvor misralarini mutolaa qilarkansiz, yuragida dardi, og'rig'i bor yurtdoshlariga, halqiga "Axir Siz yaxshi yashashga munosibsiz... Buning uchun bir-biringizni suysangiz, bir-biringizni boshga ko'tarsangiz... xech bo'lmaganda bir-biringizga andakkina mexr qo'yolsangiz bas..." degan iztirobli mushohadalarin favqulodda ohangdor, qo'yma misralari qatiga joylab yuborayotgan kuyunchak, fidoy ijodkor qiyofasi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Yo'q, Muhammad Yusufni "qo'shiqchi shopr" deyuvchilar qattiq yanglishadilar. Muhammad Yusuf - iztirob shoiri. Faqat u o'z xissiyotlarini zo'raki murakkab matnlarda ifodalashga zo'r bermadi, bil'aks bir shoir e'tirof etganiday, sun'iy murakkablik cho'qqisiga tirmashib yurmay, to'g'ridan-to'g'ri soddalik (go'nlik emas) vodiysiga tushib oldi. Baayni tilni atay buzib, g'ala ohanjamalarda so'ylayotgan to'da ichida kimdir jonli, halqona tilda so'ylay boshlagan kabi, Muhammad Yusufning bitiklari ham darxol el ko'ngliga "jiz" etib tegdi. Va bu e'tirof ko'lam, mana necha yildirki, oshsa oshmokdagi, aslo kamaymayapti.

Muhammad Yusuf - el muhabbatiga sazovor bo'lgan shoir.

Ammo... el tinchisa tinchir, ammo shoir zoti tinchimaydi.

Muhammad Yusuf ham, balki Istiqlol tufayli "olomonlik"dan "el"ga aylangan Vatandoshlarining "halq"qa aylanishini tilamoqda...

Ayonki, shoir uchun eng yuksak mukofot - yurt mexri. Muhammad Yusuf mana shunday mukofotga sazovor bo'lgan shoirlardan. Bu ulkan mexrning turfa ko'rinishlarida mavjud. Deylik, el-yurt o'zi suygan shoirini rasmiy mukofotga ham taqdim etsa - bu xo'nur ustiga nur emasmi?..

Xullas, shoir Muhammad Yusuf Abdulla qodiriy nomidagi Davlat mukofotini olishga nomzod etib ko'rsatildi. Biz, "Xurriyat"chilar ushbu ezgu niyatni chin dildar kutlagan xolda elning erka shoiri ijodiga yana muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

"Xurriyat" gazetasi taxririyati

“Yur, muqabbat, ketdik bu yerd”

Bundan yigirma yil burun, o'sha paytda adabiyotimizning ko'zgusiga aylangan "Sharq yulduzi" jurnali taxririya-tida yosh shoir Muhammad Yusufning bir dasta she'rini nashrga tayyorladik. U paytlarda bu kabi voqealar tez-tez bo'lib tursa-da, jurnal xodimlariga bayramdek ta'sir etardi. "Birinchi chiqish"larning nainki shoir, kitobxon uchun ham esda qolarli bo'lishiga harakat qilardik.

Jurnalarning o'sha paytdagi mas'ul kotibi-yozuvchi Toxir Malik Muhammadjonning she'rlarini ko'zdan kechirgach, meni xonasiga chaqirtirdi. Kirsam ko'lyozmaga qarab, peshonalari tirishib o'tiribdilar. Yuragim shuv etdi. "Naxotki yoqmagan bo'lsa..." degan hayol o'tdi miyamdanda. Bunday bo'lishi mumkin emasdi Toxir akaning she'rga munosabatini yaxshi bilardim. Shunday bo'lsa-da, tayyorlangan she'rlarning mazmun-mundariyasi, hayrat-hayajoni va o'ziga xos boshqa jihatlarini yashir tezligida hayolimdan yana bir bor o'tkazib oldim. hatto ularni tanlash barobarida, esimdanda qolgan satrlar ham dilimdan o'tdi:

"Brigadir aka, muncha ozg'insiz,

Muncha bo'liq g'o'zalaringiz?

Ham sodda, ham samimiy satrlar. "Paxtani deb odamlar ozib-to'zib ketdi odamlarning qonini so'rib, naxtalar semirib, to'lishib ketdi", - deganday. Bitta o'xshatish bilan, bitta chog'ishtirish bilan esda qolarli va dardli misralarda halq taqdiri ochib berilyapti. U paytlarda bunaqa gaplarni yozish - o'ziga xos ijodiy jasoratni talab qilardi.

-Ha. Toxir aka, peshonangiz tirishib kolibdi? Yoqmadimi she'rlar?

-Nega? She'rlar ma'qul. Shu sonda e'lon qilamiz, dedi Toxir Malik o'sha kayfiyatda. - Lekin ismi sharifi yoqmayroq turibdi.

-Xudo bergan ismi sharif - Muhammad Yusupov. Nimasi yomon? hali mashxur shoir bo'lib ketsa, bu gapingiz uchun uyalib yurasiz. - Muhammadning she'rlar bosilishini eshitib, ko'nglim xotirjam bo'lib, o'zimcha hazil qilgana bo'ldim.

- A?! - dedilar Toxir aka, xazilimning o'rinsizligidan ensasi qotib. Keyin qo'shit qo'ydilar: - "Yusupov" tarzida chiqarmaymiz. Payg'ambarimiz Yusuf alayxissalomning ismlarini o'rischa ishlatmasligimiz kerak. Bu shoiringiz "Muhammad Yusuf" imzos ostida nashr etiladi endi. Kelib kolsa, roziligini olaylik. Ayting menga uchrashsin.

Shunday kilib, ilk bor "Sharq yulduzi" jurnalida "Muhammad Yusuf" degan imzo paydo bo'ldi. Lekin xozirgi kunda halqimiz sevib, nomini e'zozlab tilga olayotgar Muhammad Yusufning shon-shuqratiga xali ancha bor edi. U ko'p mexnat qilishi ijodning mashaqqat va zaxmatlarini boshidan kechirishi lozim edi. Albatta, buning ustiga, unda Xudo bergan iqtidor ham bor bo'lib, ana shu iqtidor uni tez kunda

tengqurlari davrasidan, yozgan asarlarining pishiq-puxtaligi va mukammalligi bilar ajralib, chaqmoqday otilib chiqib ketganligidan ham ko'rish mumkin.

Men dardimni kimga aytaman?

Muhammad Yusufning o'sha paytdagi yosh xonanda Maxmudjon Azimov ijrosida yangragan "Ulug'bekning armoni" qo'shig'idagi mazkur satri halqning dilidag dardga mos keldi. Garchand, asarda odamlar yaxshi bilgan fojia to'g'risida xikoya qilinsada, shoir talqinidagi xayajon qalblarda aks-sado berdi. U axir, mustabid jamiyatning asoratli damlarida, yurtimizda sobiq tuzumning xo'jasizliklari avj olayotgar paytda yangradi. Ustiga-ustak, mexrsizlik, shaxs manfaatlarning eng oxirgi daraja-da ha etilishi, ba'zan hal etilmay qo'ya qolinishi, poraxo'rlik va tanish-bilishchilikning ko'paygandan ko'payib ketishi natijasida xaqiqatan ham kishilar dardlarini kimga aytishni bilmay yurgan pallalar edi. Ulug'bek taqdiri baxonasida, shoir halq yuragidag armonni ustalik bilan ko'shiqqa soldi. Shu o'rinda "Ulug'bekning armoni" ko'shig' yaratilishi bilan bog'liq xodisa to'g'risida ham to'xtalib o'taylik.

...O'sha kunlari shoirga Darxon mahallasidan yangi xonadon ajratilgandi. Uy bitgan, lekin xali foydalanishga topshirilmagan, Muhammadjonnnig esa ichi qizib, yarin kechasi o'sha uy yoniga borib qoladi. qurilish qorovulini yo'lga solib, eshikni ochdiradi Xonadoniga ko'tariladi. Charchagan shoir oldinroq keltirib ko'yilgan bir ko'rpacha va bolishga o'zini tashlab, uxlab koladi. Tushida oppoq kiyingan bir chol ko'rinib, uning boshini silaydi va oq otga Muhammadni mindirib qo'yadi. Shoir uyg'onib, ko'liga qog'oz-qalam oladi va "Ulug'bekning armoni" degan qo'shiq qog'ozga tushadi...

Payhambarimiz Muhammad sallolloxu alayqi vassallamning xadislarda yaxshi amallar, yaxshi munosabat va muammolar to'g'risida ulug' o'gitlar bor:

So'nggi kun mayyitga borar ergashib,

Uch narsasi - axli, moli, amali.

Axli, moli qaytur orqaga shoshib,

Amali qabrda qoldirmas xoli".

Shoir Muhammad Yusuf esa shu qadim xikmatlar yo'lidan borib, bunday kuylaydi:

"Kelganda ham zamona oxir,

Mexr qolur, muqabbat qolur".

Bu o'tlig' nido ham imonli kishilarimiz kalbida aks-sado berishi tabiiy edi. Boz ustiga, bastakor Anor Nazarovning unga yaratgan kuyi qo'shiqning parvozini yuksak-yuksaklarga olib chiqdi.

Men shoir iste'dodining halq orasida nechog'lik qadrlanishini ko'rgan odamman. Bir kuni u bilan Baliqchi tumanining Chinobod qishlog'ida ketayotsak, yo'limizni bi kekxa, nuroniy kishi kesib chiqdi. Va bizdan oldin salom berdi.

-Yanglishmasam, siz Muhammad Yusufsiz-a? - shoirga yuzlandi u.

-Ha, men o'sha Muhammadman. Raxmat, e'tiboringiz uchun. - Keyin meni xijola bo'lyapti, deb o'yladi shekilli, qo'shib qo'ydi: - Bu akam Shukur Qurbon, katta shoir ustozim.

Otaxon menga ham hurmat bajo etdi. Xijolat bo'ldim.

-Bolam, - deb endi u Muhammadjonga murojaat qildi, - "Samarqandga borsan men agar"ni yozgan qo'lingiz dard ko'rmasin.

Shoirga bundan ortiq mukofot bormi?

Baliqchilik talabalarning olti yuz kishilik davrasida esa Muhammad Yusufning bastakor Anor Nazarov bilan birgalikda yaratgan, "O'zbekcha tango"si yangradi. Xox ishonang, xox ishonmang, olti yuz talabaning barchasi shoir hamda bastakorni qutlab raqsga tushdi. Xozir u qo'shiq Nuriddin Haydarov ijrosida xavo mavjlarida tez-tez taralit turadi. qo'shiqdagi "Yur, muqabbat ketdik bu yerdan" degan chorlovi insonlarni yomonlikdan yaxshilikka, qaxrdan mexrga, xaromdan xalolga tomon da'vat etadi qo'shiqda muxabbat mavzusining qalamga olingani esa bir baxonai sabab, xolos. Demak bu yoshlarning shoir ijodiga extiromi edi.

Marxum va mashxur qo'shiq yozuvchi shoirlardan biri (Ollox uni raxmat qilsin) Muhammadni bir kuni nashriyot yo'lagida uchratib qolib, unga havas va xasad bilan:

-Qaynayapsan-a bola, shu kunlarda! Juda-juda qaynayapsan, ishqilib oxiri bahay bo'lsin! - degandi.

Bu yoshi katta shoirlarning e'tiroflaridan biri. O'zi tengilarning qanchadan-qanchasi Muhammad Yusufni "yangi she'riyat" yaratish ishiga xissa qo'shmayotgan sanab, yanib yurdilar. Hatto shunaqasi ham bo'ldiki, orqavarotdan uni "ro'zg'orboq she'rlar" yozadigan shoir, deb ham gap qildilar. Shoir esa ularning she'rlaridagi qiliqlariga yesenincha qilib, bularning aytayotgan yo'llaridan yurib ko'rganmiz, qabilida gap qildi va o'zining halq ko'shiqlari yo'lidagi asarlarini yozaverdi. Deqqonlarimiz munis onaxonlarimiz haqida, qatag'on yillarida xalok bo'lgan bobolar to'g'risida "Onan yig'lar", "Dexqon bobo", "Fayzulla bobo", "Qodiriy bobo" kabi o'nlab ajoyib qo'shiqlar

dunyoga keldi. Mustaqil davrimizni kuylovchi "Halq bo'l", "Belbog'". "Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar", shuningdek, "O'zbekiston - Vatanim manim" ko'rik-tanlovlarida muttasil yangrayotgan taronalari yaratildi. Yaratilmoqda.

Men bu iqtidorli shoir ukamga ijodiy parvozlar hamisha yor bo'lishiga tilakdoshman.

Shukur Qurbor

2000 yi

Bu g'animat dunyoda

Uch kun ilgari O'zbekistonlik she'riyat muxlislari shoir Muhammad Yusufni so'nggi manzilga kuzatishdi. U 47 yoshda edi...

Bu dunyoda shoir bo'lib, ayniqsa, halqning shoiri bo'lib yashash oson emas. Chunki halq shoiri o'z yuragini suyaklari bilan o'rab, ko'krak qafasiga yashirib qo'ymaydi. Uning yuragi ochiq va yuzada bo'ladi. Halqi atrofida esa boshlagan shamol uning yuragiga izg'irin bo'lib uriladi, kelayotgan har sharpani sezadi yuragi. Bor quvvat yuragida bo'lgani uchun birov qoqilsa yo yiqilsa ham yelkasi yo qo'lini emas, yuragini tutadi, yuragi bilan suyaydi. Halqi boshiga quvonch kelsa ham sekingina suyunib qo'ya qolmaydi. Yuragi yorilguncha quvonadi.

Muhammad Yusuf o'zbekning ana shunday shoiri edi. U birdaniga Muhammad Yusuf bo'lib qolgani yo'q. Bir paytlar O'zbekiston olti million paxta topshirishi shart deb o'zbekning yetti yasharidan yetmish yasharigacha izillatib dalaga quvganlarida marhamatlik tolchiviqday Muhammad ham haydalganlar orasida bor edi. U ham olib qishloqlardan poytaxtga baxti, yo'lini izlab kelgan yuzlab iqtidorli yigitlar qatori ijara uylarda yashadi. O'zbekiston Halq shoiri, O'zbekiston Oliy Majlisi deputati, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari biri-biridan nufuzli yorliqlarga yetguncha ko'p baland-past yo'llarni bosib o'tdi.

Muhammadjon minbarlarda, davralarda, ko'chada, uyida - hamma joyda, hamma vaqt samimiy edi. Turlanib, tuslanmasdi. G'ururini ham, erkaligini ham, xijolatini ham sir tutmasdi.

...Bugun balki shuning uchun ham uning bevaqt o'limidan ich-ichimizdar qayg'uramiz. Jonu jigarimizdan ayrilganday bir-birimizga "Bandalik-da Muhammadjondan ayrilib kolibmiz" deyaimiz. U bilan bog'liq xotiralarni o'rtanib eslayaimiz.

Bu xali xotiralarning boshlanishi.

Xali mustaqillik bayramlarida mushaklar otilgan-da, maydonda minglat vatandoshlarimiz bir-biriga yelka tirab "Halq bo'l, elim", "Xech kimga bermaymiz sen O'zbekiston" deya kuylaganlarida, bu elni birlashtiruvchi, yuragida Vatanga mexr uyg'otuvchi satrlar egasini yodlaymiz.

Uning rafiqasi - ko'p og'ir-engil kunlarida doim yonida bo'lgan Naziraxonning intizor ko'zlarini ko'rgan-da eslaymiz.

Farzandlari - kizlari kelin liboslarini kiyganda, "yor-yor" bilan ostonaga qadar qo'yganda, uydan chiqqanda "ota" degan salobatning bo'sh o'rniga qarab uzlikamiz.

Eslaymiz, eslayveramiz. Balki bir yaxshi shoirning bevaxt zavoli ham bizga ko'p narsalarni - bu xayotning naqadar omonat ekanini, bu g'animat dunyoda bir-brimizni asrab, bir-birimizga tayanch bo'lib yashash zarurligini o'rgatib turar.

Balki, bu "balki"lar ham bizning qabarib turgan qalbimizga bir taskindir...

Ollox sizni raxmat qilgan bo'lsin, Muhammadjon!

Kutlibeka Raximboev

Ortda qolgan iz...

Dunyoda shoir ko'p, shoirman degan ham ko'p...

Bulbulman deb sayrab yurgan zog'lar ham ko'p. Lekin chin shoirlar, haqiqiy bulbullar...

Do'stimiz Muhammad Yusuf chin shoir edi, shundayligicha qoldi. U ilk she'r chiqqandan buyon bir odam zotiga berilmish nainki quvonchu iztirob, mexnatu zaxmat baxti farog'at bo'lsa - hamma-hammasini she'riga sarfladi, o'zini, oilasi, gulday qizlarining bari oromu xalovatini ham she'rga almashdi.

Bir paytlar sharqiroq soylarday yurgan shoirlar qatoriga sokingina bir irmoq gaydarigina bir o'zbaki ariq kelib qo'shilganini birov sezib, birov sezmay qolgandi Qaldiraqlari chaqinlar guldurab, chaqnab, bulutlari yomg'ir-galalar alg'ov-dalg'ov bo'lib yotgan osmonga quyosh shunday bilinmaygina chiqadi, oy shunday paydo bo'ladi Keyin... hammayoq nurafshon, munavvar bo'ladi.

Uning she'ri sodda edi. O'zbek dalasining tutprog'iday jaydari edi. Sodda mexnatkash elini, ulug' Vatanini o'ziga xos, hammaga tushunarligina qilib kuyladi

Qizg'aldoqday sevgisiyu kapalakday muxabbatini shabnamga cho'mgan maysalai yangliq toza va beg'araz aytib o'tdi

"Shoirlikka o'qimagan", "mutahassis" shoirlar orasida mudom "men ortiqcha emasmanmi?" deganday qimtinib, tortinib yurardi. "Mening she'rim ham bir nimaga arzirmikan?" degan yanglig' o'z she'rlari oldida ham tortinganday tutardi o'zini. Bu kibr havo, manmanligu adovat dunyosiga shundoq bir shoir qaradi-da, ketdi.

Haqiqiy she'riyat hamisha fidoyilikni talab qila-di, beayov qurbonlikni so'raydi. She'r uchun ayovsiz yashamoqni, o'zini sarflamoqni o'z xayoti, she'rlari, kitoblari ila ko'rsatib ketdi u.

Bir paytlar yetaklashib ilk she'rlarimizni "Yoshlik" jurnaliga olib borganmiz. Ustoz Erkin Voxidov bosh muxarrir bo'lgan, she'r chiqarish g'oyat sharaflil sanalmish bu nashrda she'rlarimiz bosilganda, ikkimiz uchun qanchalar bayram bo'lgan edi. Abdulla akaning nazariga nixoyatda tez tushgan, mudom u kishining diqqat-e'tiborida bo'lgan shogirdning ham shogirdlari qisqa muddatda ko'payib ketdi.

U menga bor-yo'g'i bir martagina iltimos qilgan: "Mabodo men xaqimda biror nima yozsangiz agar "Ko'shiqchi shoir" degan so'zni ishlatmasangiz, yomon ko'raman..." U aynan o'ylab, qo'shiq qilib aytilsin uchun she'r yozgan emas. She'rlari qo'shiqday, halqona, sodda, ravon yaralgani uchun ham qo'shiqlarga aylanib ketardi.

Sirojiddin Sayyid

“Aylanayin qora qoshu ko'zingdan-a”

Muhammad Yusuf o'zbekning ko'ksini kuydirgan shoir edi. Chunki u kuysa yozardi, gullasa yozardi. Kuyish uchun, gullash uchun odam oshiq bo'lishi kerak.

Muhammad Yusuf o'z millatini, o'z Vatanini, uning har bir giyoxi, xatto hasini ham o'zidan-da ortiq suyardi. U she'r qidirmasdi, she'r uni izlab kelardi. Halqona ohang uning satrlarida ajib sado berardi. Shu bois ham shoir she'rlari qo'shiq bo'lib qanoat yozardi. Bu qo'shiqlarda halqning dardi bor edi, orzusi, armoni bor edi. Ayni paytda millatning mexri balqib turardi, Vatanning go'zalligi ufurib turardi.

"Ko'klamoyim ko'kingdan ber bir chimdim" deya bulbuddek bo'zlagan shoir ko'klam o'z ko'ksiga sig'magan kunda - 26 aprelda tug'ilgan edi. U Andijonning Marxamatida tug'ilib, butun halqimizning e'zoz va marhamatiga musharraf bo'lgandi. Uni Qoraqalpog'istonda ham, Surxonda ham, Buxoro, Samarqandda ham birdek suyardi muxlislari. U tom ma'noda halqimizning erka shoiri edi. U Toshkent viloyatining Chinoz tumanidan O'zbekiston Oliy Majlisi deputatligiga saylangandi. U Parkentni o'zining

ikkinchi ijod maskani deb bilardi. "Kumushkon", "So'qoq" oromgoqlarida umr yo'ldosh Nazira va qizlari bilan xordiq chiqarardi. Muhammadjon Kumushkon soyida cho'milishni nixoyatda xush ko'rardi. Shoirning o'nlab she'rlarini ilk o'quvchisi bo'lganimdan, ayni paytda shoir she'rlari oq qog'oz yuzini ko'rganda uning o'z ovozar eshitganimdan faxrlanaman.

Bugun ana shu faxr bilan yonma-yon dilni armon ezadi, ko'ngilni sog'inch ezadi Kamoloti ko'ksiga sig'magan paytda naxotki shoir ketib qoldi, degan so'roq jism jonimni kemiradi. Chunki uning orzulari cheksiz edi.

Muhammad Yusuf benazir ustoz, O'zbekiston Kaxramoni Abdulla Orinov bilan yonma-yon ishlayotganidan o'ziga sig'masdi. "Ustoz haqida ajoyib bir narsa boshlat ko'ydim, bu xozircha sir" degandi Muhammadjon mamnuniyat bilan. Yana bir kuni u menga "Men" degan doston yozayapman deb koldi.

- Nima uchun ayian "Men" nomini qo'ydingiz degan savolimga:

- Men deganim, bu o'zligim, o'zligimiz degani. Menim orqali, ko'nglim orqali ko'rgan azobimizni, nasib etgan baxtimizni, xurligimizni kuylamoqchiman, - deya javot bergandi.

Afsuski, bu bitiklar oq kog'ozga tushmay qoldi. "Yozilmagan qo'shiqlarim sizdar uzr", deya xijolat bo'lgan shoirning yozilmagan she'rlari Toshkentda 5-qavatdagi betor uyi devoriga bosh urayotgan bo'lsa ham ajab emas. Yozilganlari esa shoirni o'ldirmaydi.

Aylanayin qora qoshu ko'zingdan-a,

O'zingdan qo'ymasin halqim, o'zingdan-a!

Bu satrlarni bitgan shoirni halqi xech qachon unutmaydi. Zero, Muhammad Yusuf desa har bir dilda "Xech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!" degan sadc jaranglaydi. Usmon Nosiri, Cho'lponi, Kodiriysining diydoriga go'ymay qolgan o'zbek halqi endi Muhammad Yusufni ham sog'inib yashayapti. Chunki u halq shoiri edi, shu halqning shoiri edi.

Men o'zimni Muhammad Yusuf ruxi oldida hamisha qarzdor xis qilaman. Chunki uning mexridan ko'p bora baxramand bo'lganman. Shoir tug'ilgan kun uning uyiga xofizlar sig'masdi. Bugun esa ko'ngilga qo'shiq sig'maydi. Yodnoma yozayapman-u ishongim kelmaydi. IZTIROB bilan "Qanday ketib kolding, Muhammad Yusuf" deya so'rayveraman.

IZTIROB

Millatning dardiga darmon shoirim,
Endi o'z halqiga armon shoirim,
Yo'q, sening o'lganing yolg'on shoirim
Naxot ajal yo'lin bo'lmaydi to'sib,
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?
Balqib turgan baxtning jarangiday xush,
She'r o'qib elingni qilarding sarxush,
Kayga shoshding, inim, tobutingdan tush,
Onang yo'llaringga turgandir chiqib,
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?
Demagin sen bilan bitta jon ketdi,
Qancha yozilmagan she'r, doston ketdi,
Tangri senga bergan zo'r imkon ketdi,
Nolamdan tikonlar chiqmoqda o'sib,
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?
Xar nafas ko'zlarim o'ngidadirsan,
Mexring bilan mexrim rangidadirsan,
Ox, endi oxlarning oxangidasan,
Qizlaring turishar sochlari to'zib,
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?
Yulduz yo'lga chiqdi seni axtarib,
G'ulomjon, G'iyoslar g'aribdan g'arib,
Xofizlar bir kunda qoldilar qarib,
Naxot seni boshqa ko'rmaslar qaytib,
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?

Muhammadi bilan baxtli Andijon,
Muhammadsiz qoldi axli Andijon,
Yig'lasang arziydi, yig'la Andijon,
Bobur ham Afg'onda yotibdi o'ksib,
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?
Bexisht bolish bersin, bulbul shoirim,
Izingdan intizor ming gul shoirim,
Yo'q, sen o'lganing yo'q butkul shoirim,
O'zbek olib yurar joniga qo'shib,
Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf?

Maxmud Toirov

Shoirlar - Xudoning erkatoylari yoxud ezgulik elchilari

O'shanda adashmasam 31 iyul edi... Shu mash'um kunda biz, halqimizning asl farzandidan ayrilganmiz. Garchi kuz kelishiga bir oy vaqt bor bo'lsa-da, kuz bizning qalbimizga o'z hazonlarini erta to'shab ketdi. Nailoj, bandasi bariga ko'nikib ketadi. Shoirning tuprog'i sovugach, ularning ayollari Nazira opaga qo'ng'iroq qildim.

Muhabbatxon, bir necha bor sizga telefon qildim, ammo sizni topa olmadim. Akangiz qatnashgan barcha ko'rsatuvlarni yozib olmoqchi edim. Xarxolda taskir bo'lardi. Albatta men bu ishda yordam berishimni aytdim. So'ngra Nazira opa hazir ohangda:

-Akangiz haqida bitta xotira ko'rsatuv qilib bersangiz, - dedilar.

Men o'zimni to'xtatolmay yig'lab yubordim. So'ngra, bir kun kelib o'z jonajor akam haqida ko'rsatuv qilaman deb hayolimga kelmaganini aytib, bir oz dardlashdik.

Tasvirga olish jarayonidamiz. Shoir xonasiga kirib borarkanman, uning yozuv mashinkasi, stuli - o'rindig'ini ko'rib, bo'g'zimga bir nima tiqilib qoldi.

O'zimni qo'lga olib, fотиha o'qidik. Ishni shoirning ish stolidan boshladik. So'ngra suratlar, nazarimda, Muhammad akaning ruxi uyning qaysidir burchagidan bizga qarab turgandek tuyulaverdi menga.

-Shoir vafotidan so'ng qanday armonlar qiynayapti sizni, nima deb o'ylaysiz, biz tirik chog'ida ba'zida yaqinlarimizga mexr ko'rsatib ulguramiz yoki yo'q. Shunga qo'shilasizmi, yo'qmi?

-Muhammad akangiz bizdan ayrilgilari kelmasdi. Men bo'lsam, bolalarimni olib tez-tez Marhamatga ketardim. Onalarining, yaqinlarining ko'nglini olibmanu yonimdagi insonning ko'nglini ovlashga kech qolibman. Mana armon! Endi uyimdan bir qadar chiqqim kelmaydi. Ammo foydasiz!

-Nazira opa, xuddi shu o'rinda Muhammad akaning bir satrlari yodimga tushdi. Biz tiriklar yig'i nima ekanligini anglab yetgan chog'imizda bizning yaqinlarimiz bu dunyodan o'tgan bo'lishadi.

-Muhabbatjon! Yig'i nimaligini men bundan o'n bir yil avval - bittayu bitta akan bedarak yo'qolganda, uch yil avval mexribon otamdan ayrilganimda tushunit yetganman. Ammo Muhammad akangiz - menga ham ota, ham aka bo'lib qolgar suyanchig'imdanda ayrilish hayolimga ham kelmagandi. O'z g'amim bilan bo'lib, u mer uchun qanchalik aziz ekanligini xis qilib yashashga ulgurmay ham qolibman. Siz keltirgan satrlar bugungi to'kayotgan ko'z yoshlarimga daxldor bo'lsa kerak.

Shoir A.Oripov shoirni shunday xotirlaydi: Bir kuni tush ko'ribman. Emishki Muhammadjon oppoq soqolda, oppoq kiyimda yurganmish. Iloxim, u dunyoda har jannatlarda yurgan bo'lsin. Uning ijodini men hech qaysi shoirga o'xshatmayman. Uning o'z yo'li, o'z ovozi, o'z qalami bor edi. Ming afsuski, erta ketdi. Uning she'rlari umriga umr qo'shadi, deb umid qilaman. Adabiyotimiz, she'riyatimiz juda og'ir judolikka uchradi. Biz halqimizning sevimli shoiri, mening ishongan shogirdim Muhammad Yusufdan ayrildik. Bolalari uning izidan borib, otasining ruxini shod etadi, degar umiddamiz.

Shu o'rinda shoirning eng yaqin do'stlaridan biri - Yulduz Usmonova: Bilasizmi, menga xozir do'stim Muhammadning o'rni juda bilinyapti. Nafaqat menga, o'zbek qo'shiqchiligiga ham. Uning ijodida men boshqa shoirlarda ko'rmagan bir xususiyat bordard bor. Eng asosiysi - sizning dilingizdagi armon bor. Men yaqin do'stlarimiz Oxunjon Madaliev va Muhammad Yusufning nomini halqimiz hech qachon yoddar chiqarmaydi deb o'ylayman. Chunki, har ikkalasi ham o'ziga munosib o'rin qoldirib nomlarini manguga muxrlab ketishdi. Joylari jannatda bo'lsin. Iloxim, ot bosmagar izlarni, toylar bossin. Ayollariga juda ham qiyin. Ularga sabr-bardosh tilayman O'tganlarning oxirati obod bo'lsin!

Ha, bu foni dunyodan kimlar o'tmadi. Ammo kelmak va ketmakda xikmat ko'p Odamzot ustun bo'lolmagan bu ochun xech kimga vafo kilmagan. Ammo sening bedo

tunlaring, qalb og'riqlaring, dardu intilishlaring sendan so'ng, ajoyib xaykal qo'yishadi senga.

Shu ma'noda shoir Muhammad Yusufning nomi biz muxlislarning qalbida mangu yashaydi.

Shoir bizga bergan intervyularidan birida shunday degan edi: "Shoirilar - ezgulik elchilari, Xudoning erkatoylari ular. Ular hamisha yaxshilikka oshno bo'lishadi. Orzular hamisha qalbi misol beg'ubor bo'ladi ularning. Kisqa umr ko'radigan iste'dodlar o'z umrining qisqaligini bilganlariday shoshib yurishadi".

Qisqa, ammo mazmunli umrida Muhammad Yusuf o'zidan so'ng, to'g'rirog' tirik chog'ida yaxshilikdan, ezgulikdan o'ziga haykal qurib ulgurdi.

Yer yuzida bitta bo'lsada she'r muxlisi qolguncha shoir yashaydi. U bizning qalbimizda. Aytishadiku, marxumlar bu foniyl dunyodan ko'z yumganlaridan so'ng ularning vujudi qabristonga, ruxlari esa tiriklar qalbiga ruhan dafn etiladi. Illo, shunday O'tganlarning oxirati obod bo'lsin, Ollox barchamizdan rozi bo'lsin!

Muhabbat Hamroev

“Menday xoksorni ko'rolmas qancha...”

Muhammad Yusuf hayot bo'lganida, 26 aprel kuni 50 yoshga to'lardi.

Dunyoga ozori tegmagan inson,

Xar kimga boshini egmagan inson.

Gar qaytib kelsangiz bir fursat, bir on,

Yetim bo'lmasmidi tanti she'riyat.

She'r... U qanday tug'iladi, unda ne sirlar borki, insonlar qalbini zabt etadi? Ustoz Muhammad Yusuf so'zi bilan aytilgan she'r - duo, yurakdan yog'ilgan oyat. Shuning uchun ham u odamlarni sexrlaydi, maftun etadi. dardlariga malham bo'ladi. O'zining go'zal she'rlari, ya'ni duolari, oyatlari bilan halqimizning yuragidan joy olgan kamtarir inson, mexribon ota, fidoyi ustoz, ajoyib shoir Muhammad Yusuf bugun oramizda yo'q...

Tarixiy haqiqatmi yoki tasodifmi, bilmadim-u; lekin ulug' insonlarimizning ko'pchiligi baxor faslida dunyoga kelgan. Har ko'klam yurtimizda bir qancha daxolarimizn tug'ilgan kuni nishonlanadi. Agar o'zbekning tanti shoiri Muhammad

Yusuf ham xayot bo'lganida, 50 baxorni qarshi olgan bo'lar edi. Ayni kamolga to'lgan hayotning og'ir-mashaqqatli sinovlaridan so'ng uning roxatli mevasini totish mumkin bo'lgan davr. Ammo... ammo taqdir, qismat shunchalar beshafqat ekanki, shunday halqparvar shoirimizni oramizdan yulib ketdi. 25 millionlik Uzbekiston halqiga, o'zbek she'riyatiga, shoirning jondan aziz dilbandlari-yu, keksa volidai muxtaramasiga ham raxm qilmadi. Ana ko'rgilik, ana qayg'u. Dardning bundan ortig'i bo'lmaydi.

Shoir baxor faslini sevar edi. Tabiatning betakror mo'jizasi bo'lmish shivirlat yog'ayotgan mayda tomchilar ostida sayr qilishni, hayol surishni yoqtirardi. Balki uning chapani ilxomi ana shu yomqir ostida tug'ilardi?

Aziz insonlar u dunyoga rixlat qilganidan so'ng ham tiriklar g'amini yer ekan. Ayniqsa, ota-onaning ruxi ortida qolgan nuri diydasi, farzandlari taqdiridan havotirga tushib, notinch bo'laverar emish. Bu hayoliy so'zlar emas, ayni xaqiqat. Marxun shoirning ruxi poki ham bu dunyodan ko'ngil uzib keta olmayotgandek. Negaki hali uning bu foni dunyoda qiladigan ishlari, bog'lab turgan rishtalari birtally edi. U hali ota bo'lib barcha farzandlari kamolini ko'rib kuvonmagan ham. Shundanmi, balog'atga yetib ulgurmay tashlab ketgan jondan aziz kizlarining atrofida girdikapalak bo'lib tushlariga kirar, qizlariga doim to'g'ri yo'l ko'rsatib, sabr-toqat tilab, dalda berar ekan. Shoir o'z xayoti qsqaligini sezgandek, hali sochlariga tuzukroq oq oralamasdan shunday havotirli satrlarni bitgan edi:

Qo'rqaman ertaga men o'lib ketsam,

Yotar bo'lsam qumga botib ko'zlarim,

Ko'nglimni ko'chkiday bosadi bir g'am –

Yiglashni ham bilmas mening qizlarim...

Shoir farzandlariga qilmagan ezgu ishlarini shogirdlariga qilib ketdi. She'riyatda endigina kurtak ochib kelayotgan nihollarga qo'lidan kelganicha yordamini ayamas edi. Shogirdlarni o'z farzandidek ko'rib, moddiy va ma'naviy rag'batlantirib qo'yar edi.

Ustozning xonadoniga tez-tez borib turardim. Bir kuni kirib borsam, xursaidchilik avjida. Katta qizi Mas'uda opa o'g'illi bo'lgan ekan. Eshikdan kirishim bilan Muhammad aka she'r o'qiy boshladi:

Kechayu kunduzi senda hayolim,

Umrin o'rtasida topgan zilolim.

Otangga arzanda o'gil bo'l, lekin,

Bilib qo'y, sen asli mening Bilolim.

Sensiz qayta yetsin shox otganlrim,

Topganimdan ko'proq yo'qotganlarim.

Xo'p de, bulbulchangdan bir o'pib olay,

Oftobdan go'zalim, oydan xilolim.

Sening kelishingni qancha kutdim men,

Bobo deyishingni qancha kutdim men.

Xozircha o'zingga aytolmasmanu,

Tiling chiqqan kuning bor bir savolim.

Makoning – tpog'larning dashtu dalasi,

Ey arzanda qizimning aziz bolasi.

Alpday yigit bo'l, mag'rur va masrur,

Sen davom etkazgin mening sulolim.

Xozircha ko'zingdan o'paman, xolos,

Ko'lingdan, yuzingdan o'paman, xolos.

Salom, ey baxtinga yog'ilgan yog'du,

Bilib qo'y, sen asli mening Bilolim.

Tezroq ulg'ay, deyman, ey murg'ak tancha,

Menday xoksorni ham ko'rolmas qancha.

Sensiz yolg'izligim tegdi jonimga,

Men bir chinor bo'lsam, sen bir Niqolim.

Yoqdimi, Arslonimga atab yozgan she'rimq Men bobo bo'ldim, bobo Mas'udamni uzatganimda, qanchalar xursand bo'lgan bo'lsam, bugun undan ortiqroc xursandman, - degan so'zlari hamon ko'z oldimda. Shoir nabirasiga berilajak savollarin ham o'zi bilan olib ketdi.

San'atkorlarimiz Muhammad Yusuf she'rlarini sevar edi. Balki bu shoirning maxorati tufaylidirq Chunki u she'rlarini o'z kuyi, musiqasi bilan yaratardi. Satrlari o'z

oxangi bilan shundoq tayyor xolicha dunyoga kelar edi. Shundanmi, shoirning muxlislar orasida san'at axlini uchratishimiz, xatto aka-ukadek qadrdon bo'lib ketganlarini ko'rishimiz mumkin.

Shulardan biri marxum qo'shiqchi Muxriddin Xoliqov bo'lgan. Bu ne armonli dunyoki, marxum shoirning o'limidan iztirobga to'lib, uning xotirasini abadilashtirmoqchi bo'lgan, ko'nglida ne-ne maqsadlarni tugib qo'ygan xofizni har bizga ko'p ko'rdi. Oradan xech qancha vaqt o'tmay, Muhammad Yusufga chang solgar ajal ajoyib bir sai'atkor - Muxriddin Xoliqovni ham oramizdan olib ketdi.

- Men Muhammad Yusuf singari shonni xech qaerda uchratmadim. Kamtarin soddadil edi raxmatli. Ko'p qo'shiqlarimning she'rini yezib bergan.

Ko'pincha qo'shiq yaratishdan oldin u bilan maslahatlashardik. Xudo nasib etsa Muhammad akaga bag'ishlab qo'ygan bir qancha ishlarimning rejasi bor.

U haqida videofil'm qilish niyatidaman. qolaversa, 26 anrel – tug'ilgan kuniga bag'ishlab katta "xotira kechasi"ni o'tkazish maqsadidaman. Undan tushgan mablag'ni shoirning oilasiga berardim. Hali farzandlari yosh, moddiy jixatdan qiynaladi. Balki "xotira" kitobiga ham yordam berarman, - degan edi san'atkor o'limidan ikki kun oldingi suxbatimizda. Lekin bu orzu-umidlari armonligicha qolib ketdi.

Shoirning orzulari bisyor edi. Dunyoga sig'magan zot, siz ketganingiz bilan yet to'yarmidi? Yo'q, albatta. Tirik yurganingizda, bolalaringizga bosh-qosh bo'lmasmidingiz? She'riyat ostonasida turgan nixollarga bog'bonlik qilmasmidingiz? Baxorning zavqini, sururini totmasmidingiz?

Shoir nomiga aytilgan har bir so'z ijobat bo'lib, joyi jannatda bo'lishini Yaratgandan so'raymiz. har doim qabri nurga to'lishini so'rab, 26 aprel kuni butur o'zbek halqi shoirni bir dam yodga olib, uning xaqiga duo aylasalar, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Dilbaxor Xudoyberdieva

Journalist

“Xasratlaring menikiga aylandi yor, sen ketib...”

Talabaligimizda "Turkiston" gazetasi saxifalarida bir gurux yosh ijodkorlar qatori raxmatli Muhammad Yusufning "Oq yo'l"lari bilan ilk she'riy mashqim bosilgan edi. Bu men uchun katta voqea bo'lgandi o'shanda. Namangan Davlat universitetining "Umid" gazetasi taxririya-tida ishlab yurganimda, paxtakorlarga yordam berayotgan hasharchi

talabalar xuzuriga poytaxtdan bir guruq ijodkorlar tashrif buyurishganini eshitib Mingbuloqqa otlaidim. Mexmonlar orasida sevimli shoirimiz ham bor edi. O'shanda shoir bilan yonma-yon o'tirib, suxbatlashganim xali-hamon esimda. Bu muloqotlar taassurotlar nafakat men, balki boshqa talabalar uchun ham kutilmagan, ammo juda yoqimli va samimiy bo'lganiga shubha qilmayman. Katta shoirning nixoyatda xoksor va kamtarligi, o'ylaganimizdan ham halqparvarligi o'shanda biz yosh ijodkorlarni ham sevintirgani, ham ajablantirgani rost. Endi esa... biz bilgan, sevgan, o'sha uchrashuvdar so'ng ko'nglimizdan yanada chuqur joy olgan shoirning, Muhammad Yusufning tiriklari orasida yo'qligi ham haqiqat. Istaymizmi-yo'qmi, buni tan olishga majburmiz. O'shanda extimol Muhammad Yusuf bilan yana uchrashish, uning so'z sexri, she'r qudrati, ko'ngil iztiroblari xususidagi muloxazalarini so'rash, gazeta uchun muloqot uyushtirish haqida orzu qilgandirman. Biroq sira o'ylamagan edim, shoirning o'limidan so'ng u kishining ayollari bilan qadrdonlardek suxbatlashaman, xotiralar bilan bo'lishaman, deb.

Nazira opaning ham shoirning o'zidek kamtar, samimiy va ochiqko'ngil inson ekanliklarini birinchi uchrashuvdayoq sezdim. U kishi bilan yaqindan tanishish suxbatlashish ishtiyoqi paydo bo'ldi. Ammo... andak xijolatchilik bor edi... Qanday kilit boshlayman? Nima deb so'rayman? Yaralar yangilanmasmikan, ko'ngillar g'ussaga botmasmikan?..

Nazira opa buni angladilar: "So'rayvering, xijolat tortmang, - dedilar. - Bilsangiz xotiralar birmuncha taskin-tasalli beradi odamga, bizga endi shoirni xotirlash, u kishi bilan faxrlanish qoldi, xolos. Tirikligimizning sharti ham shu. O'tganlarni eslash, ruxiga duo-fotixa o'qish".

- Nazira opa, bilamizki, bu dunyoda hamma narsa o'tkinchi. Mol-dunyo, amal-martaba, shon-shuxrat xech kimning abadul-abad hamroxi bo'lgan emas. Inson umri-ku oqar suvdek, ko'z ochib yumguncha poyoniga yetib qoladi. Aytishadiki, odam ikki marta yashamaydi, ammo bir bor yashashni ham bilmaydiganlar bor. Yana shundayalar ham borki, ular juda oz, ammo yonib yashaydilar... Nazarimda, Muhammad Yusuf shunday insonlardan biri edi.

-Nodiraxoi, topib aytdingiz. Muhammad Yusuf yonib yashaydigan shoirlar sirasidan edi. Ammo bu so'z, nazarimda, uning uchun kamlik qiladi. U o'zi yonib o'zgalarni ham o'z alangasida yondirib yashadi. U o'z she'rlaridagi dardlarni muxlislarining yuragiga yuqtirib, kuyinganida kuyintirib, quvonganida quvontirib yashash baxtiga sazovor bo'ldi. Shoirman deb bulutlarga bo'ylab, oyoqlari yerdan uzilib ketmadi. O'z halqidek xoksor, o'z halkidek jaydari she'rlar bitdi. Eng asosiysi, u zoxirar va botinan bir inson edi.. ya'ni uning har bir so'zi samimiy edi. U umrining oxirigacha o'zini halqining bir kichkinagina tomchisi, xatto undan ham kichik zarrasi deb xisobladi

Shuning uchun bo'lsa kerak, halqining qalbidan chuqur joy oldi. Shoir uchun bundan oliy unvon yo'q!

- Shoir bilan yashash, uning quvonch-sholliklarini baham ko'rish, tashvishu iztiroblarini bo'lishish oson bo'lmagandir?

- Xa, oson bo'lgani yo'q. Baxt-saodatga yoki omadga osongina erishgar insonga uning qadri ham bo'lmaydi. Yusupov Muhammad degan insonning Muhammad Yusuf degan zabardast halq shoiriga yetishish pog'onalaridan birga-birga chiqib bordik desam, extimol, nokamtarlik bo'lar. Lekin bu tarixiy ko'tarilish yo'li men uchun ham siz aytgan tashvishu iztiroblarni, quvonchu shodliklarni hamrox etgan. Chunki shoirning dardi, orzu va armonlari menikidan ayro emasdi. Biz birga quvonib, birga iztirotlar chekkanmiz.

- Shoirning nimalardan ko'ngillari to'lmasdi-yu, nimalarni orzu qilardilar?

Muhammad aka tom ma'noda el dardi bilan og'rigan, baxt-saodati uchur kuyingan inson edi. Halqu yurt uchun quvonch keltirgan har bir katta-yu kichik voqea u kishini bir nafasda osmonlarga olib chiqishi, aksi esa yetti qavat yerga kirgizib yuborish mumkin edi. U o'z kayfiyatini, yurak iztiroblarini, tabiiyki, ayrimlarga o'xshab, bekitgar ham emas. Uning qizil imperiya davrida ham, ta'bir joiz bo'lsa, qaxramonlik bilan yozilgan asarlari, ishonamaiki, kelajak avlodlarga ham ibrat bo'lib qolaveradi. Misol keltiray:

Alpomish Chambilda,

Go'ro'gli go'rda,

Xaqiqat beshikda uxlardi qotib.

Bir jom oltin so'rab,

Qilich o'ynatpib,

Kirib keldi mo'min o'zbek yeriga

Tel'man Hareonovich... Beriya!

Yoki mashxur "Ulug'imsan Vatanim"ni oling. Bu asarlar bugun yo kecha yozilgani yo'q...

Halqi ozodlikka erishgan kun, umri davomidagi eng baxtli kuni edi. Ammo.. halqining yanada jipsligini, o'zbeklar orasidagi maxalliychilik tag-tomiri bilan qurishini qolaversa, turkiy millatlar bir paytlardagidek bir-birlari bilan birlashishlarini orzu qilardi Eng katta armonidan biri - Orol dengizi muammosi edi.

- Siz shoir she'rlarining birinchi o'quvchisi bo'lgansiz. O'zingiz ham ijodkorsiz. Tanqidchilik ham qilishga to'qri kelgandir balki?

- Muhammad Yusufday shoirga tanqidchilik qilish oson emas. Men o'z taklifimni aytishim mumkin edi, xolos. Agar u kishi ma'qul topsalar, olardilar. Ayrin she'rlarning yozilishiga ham sababchi bo'lib qolgan paytlarim bo'lgan. Masalar "Ko'nglimda bir yor", "Samarkandga borsam". Yozgan she'rlari mening ruxiyatimga qattiq ta'sir qilmasa, uning baxridan o'tib yuborgan paytlari bo'lgan. U kishi menda o'z muxlislarini ko'rardilar.

- Muhammad Yusufning she'rlarini to'plab, nashrga tayyorlayapsiz. Shu xaqida to'liqroq ma'lumot bersangiz.

- Kitobning nomini "Elimda alyorim qolur" deb atadik. To'plamga shoirning ustozlari Abdulla Orinov so'zboshi yozganlar. Undan umr yo'ldoshimning xotirasiga yozilgan mening marsiyalarim ham joy olgan.

- Farzandlaringiz... ular otalari bilan faxrlanishi tabiiy. Ularda ham she'riyatga ijodga moyillik bo'lsa kerak.

- To'ng'ich qizim Mas'uda bizning sohamizni olgan. U televideniening "Davri ko'rsatuvida faoliyat ko'rsatadi. Nozima va Madinam esa xuquqshunos bo'lmoqchi Nazarimda kenjatoyim Madinada she'riyatga moyillik borday.

- Yarangizni yangilab qo'ygan bo'lsam, uzr, ammo o'zingiz ham aytganingizdek, marxumlarni xotirlash biz tiriklarning burchimiz. Shunday ekan, shoir xotirasiga atab yozgan satrlariigizdan keltirsangiz.

- Shoirning eng og'riqli dardlaridan biri - Orol dengizining qurib borishi edi Taqdirning ishini qarangki, u qoraqalpoq yurtida jon taslim qildi. Oxirgi yozgan she'rin shunga bag'ishlangan.

Suving qurib, quritmagin izimni,

Ketib qolma. Orolim.

Ketib qolma, Orolim, deb uchib ketgan shoirim,

Bexol, bejon baliqlarni quchib ketgan shoirim.

Sen kelmasang, men boray deb, qulochlarini yoyib,

Ajaliga bilmay quchoq ochib ketgan shoirim.

Saxrosini ko'zlariga surib ketgan, so'lim deb,

Qaraqalpoq yo'llari ham mening o'tgan yo'lim deb.

Yot emas u, ajdodim deb, mening turkiy elim deb,

Ikki elga bitta to'nni bichib ketgan shoirim.

Sening darding meniki deb, kuyib kulga aylanib,

To'ldirayin suvingni deb, ko'z yoshlari soylanib.

Ketdi o'sha Orolining og'ushiga joylanib,

Sho'r suvini mexr qilib, ichib ketgan shoirim.

Xasratlaring menikiga aylandi yor, sen ketib,

Sen ketgan yoqlarga ko'zim tutar bo'ldim qon yutib.

Qoraqalpoq diyorining ufqlariga botib,

O'z yurtidan vidolashmay ko'chib ketgan shoirim.

Ketib qolma Orolim, deb uchib ketgan shoirim.

Nodira Abdullaeva suxbatlashdi

MARSIYALAR

YASSAVIYNING YONIGA KETDI

Bir arsloni o'tdi o'zbekning,

Oxi ko'kka yetdi o'zbekning.

Quyosh yig'la, osmon aza tut,

Muhammadi ketdi o'zbekning.

Baland ketdi, shoniga ketdi,

Jannatning ayvoniga ketdi.

Turk yukini yelkalashay deb,

Yassaviyning yoniga ketdi.

Xalima Xudoyberdieva

Sodda Muhammad

Oyni etak bilan balki yoparmiz,
Tekin yulduz izlab ko'kka choparmiz.
Olmaga qurt tushsa faryod aylagan
Sodda Muhammadni qaydan toparmiz.
Qizlar orzu qilsa tilladan qafas,
Yigitlar uog'usiz olmasa nafas,
Qirq kokil oyimni aylagan havas
Sodda Muhammadni qaydan toparmiz.
Ba'zida sel bo'lib dostonlariga,
Ba'zida kuldikmi armonlariga.
Kimlar olib ketdi osmonlariga,
Sodda Muhammadni qaydan toparmiz.
"Tuzukroq yig'lashni bilmas qizlari"
Yo'l tushsa Anjonga xumor kezlari,
Sadafdek yonsa ham bosgan izlari
Sodda Muhammadni qaydan toparmiz.

Hayrulla Nuriddinov

Radiodan deyarli har kuni
Muhammad Yusuf she'ri bilan
Vatan haqida qo'shiq beriladi.

Tiniq chashma misli qaynab,
Birda o'ychan, birda o'ynab,
Dilni o'rtab, ruqni qiynab,
Muhammadjon kuylayotir.
Yulduzning sha'nli sozida,
Sevaraning ovozida,
Elning orzu-niyozida.
Muhammadjon kuylayotir.
Qo'shigiga tutsam quloq
Oddiygina so'zlar, biroq
Tinglaganda bosar titroq –
Muhammadjon kuylayotir.
Muzlar erib taft-qo'ridan,
Til uchimas, dil to'ridan,
Yuragining tub qa'ridan
Muhammadjon kuylayotir.
Kulasada, terak bo'lib,
Bugun yana kerak bo'lib,
Bayramda muborak bo'lib,
Muhammadjon kuylayotir.
"O'zbekiston – ulug'imsan,
Cho'ponimsan, cho'lig'imsan",
She'rim, mangu qo'shig'imsan –
Muhammadjon kuylayotir.

Nido bo'lsam, bo'layin deb,
Fido bo'lsam, bo'layin deb,
Ado bo'lsam. bo'layin deb,
Muhammadjon kuylayotir.
Ko'ngli sutdek oq, oydinim,
O'yi xolis, shfzi chinim,
Qoramag'iz shoir inim
Muhammadjon kuylayotir.
Kuylayotir, tirik go'yo...
To yurt omon, turgay dunyo,
Chiqqan quyosh, oqqay daryo –
Muhammadjon kuylayotir.

Abdulla A'zan

Sog'indim

Dada, sizni sog'indim,
Endi bildi, orzu ne,
Armon neligini ham.
Dada, sizni sog'indim,
Azob berdi ayriliq...
Ko'nolmadim... Lek ko'ndim.
Dada, bir bor kelsangiz –
Menga baxt ham kerakmas,
Tillo taxt ham kerakmas!
Dada, bir bor kelsangiz...

Bir bor to'yib olsam bas!

Dada, Sizni sog'indim!!!

SIZ YO'Q

Dada, siz yo'q - borlar ketdi,

Jaranglagan torlar ketdi,

Ketdi kulgu to'lgan kunlarim.

Yarim bo'lgan ko'nglim to'lmas,

Osmon to'la yulduz kulmas,

Menday g'amgin endi tunlarim.

Bolaligim sizda ekan,

Qizim, degan so'zda ekan,

Qani sizday mehribonlarim.

Kunduzlari qonlar yutib,

Tushlarimdan najot kutib,

Yashayapman og'rib jonlarim!

Dada, siz yo'q...

MEHRIBONGINAM

Yig'lab yozdirmasang aylanay o'zim,

Biz hali hammadan o'tamiz, qizim.

Muhammad Yusuf

Yig'lab yozdirmagan kunlarim haqin,

Tinchib uxlatmagan tpunlarim haqin

Kimlarga tpo'lay.

Bir soniya jilolmayin yonimdan,

Har daqiqa ming o'rgilib jonimdan,

Anjon ketdingiz.

Boray desam, sizday suyar inson yo'q,

Arzi-dodim aytay desam, imkon yo'q –

Tura olmaysiz.

Jigarlar ham siz bor joyda jigarmi,

Jigarlarning mehri oqib tugarmi –

Ketpdilar to'zib.

Ko'zlarimni yumsam, qo'lim ushlaysiz,

Yoningdaman, qizim, deb ko'z yoshlaysiz –

Mehribonginam,

Dadajonginam!

Madina Yusuf

shoirning qiz

Manbaa “Erta so`ngan yulduzlar” kitobidan olindi